

NOFILOLOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TILINI O'RGATISH

Shodmonova Surayyo Odiljon qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: xorijiy tillarni o'qitishda aynan ixtisoslashgan oliy yurtlarida emas balki nofilologik ta'lim muassasalarida ham keng joriy qilish lozim. Aynan ushbu maqolada boshqa ta'lim sohalarida tahsil olayotgan talabalarga xorijiy tillarni o'qitishning ayrim metodlari tushuntirib o'tilgan;

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, xorijiy tillar, axborot texnologiyalari, o'qituvchi va talaba, ta'lim tizimi, oliy o'quv yurti;

Ilm-fan, texnika va iqtisodiy sohalar mislsiz darajada o'sib borayotgan bugungi davrda chet tilini bilishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Chunki har bir yaratilayotgan texnika asbob-uskunasi bizga o'zining nomi bilan kirib kelmoqda. Ulardan unumli foydalanish uchun, albatta, chet tilni bilish zarur. Respublikamizda faoliyat yuritib kelayotgan bir necha ming qo'shma korxonalar va sayyohlik firmalarining ishlash uchun ham albatta, chet tilini mukammal bilish talab etiladi.

Bugungi ta'lim tizimida chet tillarni zamonaviy pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish uchun barcha sharoitlar mavjud. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yaratilgan bunday imkoniyat va texnologiyalardan unumli foydalanib, o'qitishning yangi uslubiyatini yaratish davr pedagogining oldiga qo'yilayotgan muhim talab va vazifalardan biridir.

Ma'lumki, o'quv jarayoniga innovation pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish chet til chuqurlashtirib o'qitiladigan ta'lim sohalarida o'z samarasini bermoqda. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: nofilologik ta'lim muassasasi talabalarining chet tilni o'rganish kompetensiyasi qay darajada?

Ularning chet tilni o'zlashtirish kompetensiyasini oshirish uchun qandayishlarni amalga oshirish kerak?

An'anaviy o'qitish tizimida nofilologik talabalarga chet tilni o'qitish faqatgina amaliy grammatika bo'yicha yo'lga qo'yilgan. Talabalar, natijada, grammatikani yaxshi o'zlashtirishadi, ammo so'zlashuvga kelganda yoki so'zlarning to'g'ri talaffuz qilinishida qiynalishadi. Shu sababli, bu yondashuv yondashuvdan voz kechadigan vaqt kelganligini alohida ta'kidlash joiz.

Chet tili fani bo'yicha nofilologik ta'lim muassasasi talabalarini uchun mo'ljallangan ishchi o'quv dasturlari qayta isloh qilinishi lozim. Yangicha usulda o'tkazilgan dars jarayonida barcha til kompetensiyalarining baravar rivojlantirib berilishiga erishish

taqozo etiladi. Berilayotgan nazariya o'sha darsning o'zida turli mashqlar, o'yinlar, bahs va munozaralar orqali mustahkamlash lozim.

Dars jarayoni yangicha usulda tashkil etilganda, quyidagicha ijobiy o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin:

1) dars jarayoniga talabalar to'liq jalb etiladi va guruhdagi birorta talaba nazardan chetda qolmaydi;

2) guruh talabalarining bilim darajasi va o'zlashtirish qobiliyati individual o'rganib chiqilib, shu asosda, topshiriqlar beriladi;

3) darsda chet tilida gaplashiladi, tushunilmagan so'zlarni darrov tarjima bilan emas, balki boshqa usullarda, masalan, imo-ishora bilan tushuntirishga harakat qilinadi;

4) kichik guruhlarda mulohaza yuritish shaklida ishlanadi, ularda matn tarjimasini bilan shug'ullanish, fikr bildirish, o'zaro tushuntirishga usullari qo'llaniladi;

5) talabalarning erkin fikr yuritishlari uchun imkoniyat yaratiladi va yo'l qo'yilgan xatoliklar talabani birdan to'xtatib emas, balki o'z fikrini bildirganidan so'ng birgalikda tahlil qilinadi va misollar bilan mustahkamlanadi;

6) turli grammatik, leksik, tematik va boshqa o'yinlar tashkil etiladi. Bunda talabaning bilimiga qarab rollar bo'lib beriladi;

7) turli rasmlarni hikoya qilib berish, qisqa filmlarni tomosha qilish va birgalikda muhokama qilish, mavzuga mos yangiliklarni tinglash va tushunishga harakat qilish metodlaridan foydalaniladi.

Ta'lim jarayonida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, o'quv materiallarining turli ko'rinishlarda, turli sezgi organlari orqali qabul qilinishi va idrok etilishining ta'minlanishi ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sanaladi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirish tahlillari shuni ko'rsatadiki, butun dunyo ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogic texnologiyalarning yuzdan ortiq metodlari mavjud. Shunga ko'ra, chet tili darslari qanday shaklda olib borilmasin, dars davomida ma'ruza, 4 pog'ona, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yin, davra suhbat, loyiha, yo'naltiruvchi matn kabi sinalgan matn singari metodlardan foydalanish, ularni o'rnida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'qituvchidan o'z fanini puxta bilishi va o'z ustida ko'proq ishlashi talab etiladi.

Mustaqil ravishda mukammal ta'lim olishga mo'ljallangan elektron o'quv adabiyoti, elektron multimediali darslik, matnli, ko'rgazmali, ovozli va animatsiyali uslubiy ko'rsatmalarga fan o'qituvchisining ega bo'lishi talabalarning fanni o'zlashtirish o'zlashtirishlarida katta ahamiyatga ega. Ta'lim mazmunining samaradorligini oshirish maqsadida respublika ta'lim muassasalarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, o'quv mashg'ulotlarini yangi interfaol usul va vositalaridan foydalangan holda o'tkazish, elektron darsliklarni yaratish va ularni o'quv tarbiya jarayonida qo'llash o'z samarasini beradi.

Yurtimiz oliy o'quv yurtlari pedagog olim va amaliyot amaliyotchilari ilmiy asoslangan ilg'or texnologiyalarni ijtimoiy- pedagogik sharoitiga moslagan holda ta'lim tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqda. O'qituvchi- ta'lim islohotining bosh ijrochisi. Demak, nofilologik ta'lim muassasasi talabalari o'zlashtirishining asosiy foizi o'qituvchining darsni qay darajada tashkil etishi, pedagogik layoqati, bilimu va tajribasiga asoslanadi. Bunda har bir o'qituvchining qisqa vaqt ichida juda kata miqdordagi axborot to'plamini o'zlashtirishi , qayta ishlashi va amalda qo'llay ishiga erishish lozim.

Bugun pedagogik jarayonda o'qituvchi va talabaning munosabatlari o'zaro ma'lumot almashinuv (kommunikativ jarayon) sifatida asosiy o'ringa o'tgan. Erkin munosabatlarning yo'lga qo'yilishi dars jarayonini yanada samaraliroq, yuqori saviyaga olib borilishini ta'minlaydi. Bunda o'qituvchi hamda talaba teng, faol ishtirok etadi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir avlod oldida insoniyat yaratgan bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turar ekan, bunga erishishning birdan-bir yo'li yosh avlodning bilim, ko'nikma va malakasini oshirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. e-libray.namdu.uz "CHET TILINI O'QITISH METODIKASI";
2. <http://are.uz> "CHET TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH";